

XOLYOR SAFAROV HIKOYALARIDA MAZMUN VA G'OYA
YANGILANISHLARI

Hoshimova Farangis Qobil qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxslikning mohiyatini yangicha uslub va talqinda berish tendentsiyasi bugungi nasrimiz, xususan, o'zbek hikoyalarida bor bo'y-basti bilan namoyon etib kelayotgan, bugungi kun hikoyalarida qahramonlari o'z-o'zini taftish etib, o'z borlig'ini rang-barang jihatlarida namoyon qilyotgan, hikoyachilik janrida barakali ijod etib kelyotgan yozuvchilardan biri – Xolyor Safarov hikoyalaridagi mazmun va g'oya yangilanishlari haqida fikr-mulohazalar beriladi.

Kalit so'zlar: Xolyor Safarov, hikoya, mazmun, g'oya, "Haydar bobo", "To'ti momo", "Bitta dehqon yetadi", "Oy botmagan kechalar", "Jiyron", "Oriyat", "Aynitomlik oshnalar", yozuvchi, Toshkent, kelin, sovchilar, Gulzor opa, Nigora, xazonrezgi, Zafarjon.

Annotation: In this article, the tendency to present the essence of personality in a new style and interpretation is fully manifested in our today's prose, in particular, in Uzbek stories. One of the visiting writers – Kholyor Safarov, will provide feedback on content and idea updates in his stories.

Keywords: Kholyor Safarov, story, content, idea, writer, Tashkent, bride, suitors, sister Gulzor, Nigora, khazon line, Zafar.

Shaxslikning mohiyatini yangicha uslub va talqinda berish tendentsiyasi bugungi nasrimiz, xususan, o'zbek hikoyalarida bor bo'y-basti bilan namoyon bo'lmoqda. Bugungi kun hikoyalari qahramoni o'z-o'zini taftish etib, o'z borlig'ini rang-barang jihatlardan namoyon qilmoqda¹.

Yosh ijodkorlardan Sanjar Tursunov, Javlon Jovliyev, Xoliyor Safarov kabi hikoyachilik janrida barakali ijod qilib kelayotgan yozuvchilar ko'paydi. Ana shunday izlanuvchan ijodkorlardan biri – Xoliyor Safarovdir.

"Keyingi paytlarda tez o'qiladigan, oson o'qiladigan va ...oson unutiladigan kitoblar ko'payib ketdi. Ehtimol bunday adabiyot ham kerakdir. Biroq, haqiqiy badiiy asarning bosh vazifasi – insonni kashf etish. Uning murakkab olamini, fazilat va quvonchlarini tasvirlash hamda shu orqali o'z xalqining betakror qiyofasini yaratishdir...

Yoshlar orasida ana shu yo'ldan borib, zamondoshlarimizning o'ziga xos olamini tasvirlayotgan qalamkashlar borligi kishini quvontiradi. Shulardan biri – Xoliyor Safarovdir. Adib hikoyalarida bugungi insonlar, ayniqsa, qishloq odamlarining sodda va donishmand o'ylari, bag'rikengligi, zahmatkashligi ishonarli tasvirlangan. Muhimi ular o'quvchining esida qoladi, sizning o'z qadr-doningizga aylanadi..."².

Ijodkor Xoliyor Safarov haqidagi ushbu fikrlar uning naqadar mohir ijodkor ekanligidan dalolat beradi. Yozuvchi ijodining ko'pgina qismini hikoyalar tashkil etadi.

¹ Umurov H. Eng yangi o'zbek adabiyoti muammolari. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 194 – 196.

² Safarov X. Oy botmagan kechalar, So'zboshi. – Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2010. – B. 2.

Ularning mavzusi va ilgari surilgan g'oyalari butunlay yangicha uslubda. Hikoyalar nomiga e'tibor beradigan bo'lsak, "Haydar bobo", "To'ti momo", "Bitta dehqon yetadi", "Oy botmagan kechalar", "Jiyron", "Oriyat", "Ayritomlik oshnalar" va shunga o'xshash oddiy, lekin o'zida juda katta ma'noni jamlagan mavzulardir.

Xoliyor Safarov qahramonlari sodda, samimiy, ko'ngli toza qishloq odamlaridir. U o'zidan avvalgi ijodkorlardan farqli o'laroq hikoyalarida deyarli har kuni oilamizda, atrofimizda ro'y beradigan, lekin biz nazarimizdan chetda qoldiradigan voqea-hodisalarni yoritgan. Ularda ilgari surilgan g'oyalar kishini o'ylantiradi, tashvishga soladi, ba'zida esa yig'latadi ham. So'zimizning isboti o'laroq ijodkorning bir necha hikoyalarini tahlildan o'tkazishimiz mumkin. Ana shunda yuqorida bildirgan fikrlarimiz qanchalik to'g'ri ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Yozuvchining "Oy botmagan kechalar" nomi ostida chop etilgan kitobidan o'rin olgan birinchi hikoya "Haydar bobo" dir. Asarda qishloqda yashaydigan bir oila, ya'ni Haydar bobo, uning kampiri va oila a'zolari haqida gap ketadi. U ikki qizdan keyin tug'ilgan o'g'lining o'qib, yaxshi inson bo'lishini xohlaydi. Shu niyatda uni Toshkentga o'qishga yuboradi. Lekin, o'g'il ancha erka o'sganligi uchun sho'xlik qilib o'qishdan haydaladi. Boz ustiga betayin bir qizga o'ralashib qoladi. Ota-ona bu nomusga chiday olmaydilar. Haydar bobo va kampiri yukli kelinni o'g'liga olib berishga majbur bo'ladilar, hatto, bobo o'g'liga kolxozdan ish topib beradi. Afsuski, kelin chol-kampirning hurmatini joyiga qo'ymaydi, ularni ko'p ranjitadi. Kampiri ham biroz iddaoli bo'lganligi uchun kelinsiz ham ishlarni o'zi eplashini aytib, Haydar bobodan ularni ko'chirtirib yuborishini so'raydi. Bobo ham shunday qiladi. Lekin, o'zi ham, kampiri ham o'g'li ko'chib ketayotganda chiday olmaydi, azoblanadi. O'g'lining qilayotgan ishidan xo'rliqi keladi.

"...hatto, ota-onasi vafot etganda ham "Qismat ekanda, endi og'ir bo'lishim kerak. Ota-ona o'lmog'i meros..." deya o'zini qo'lga olgan, yaqinlarining "Xudo sabr bersin" deya yelkasiga qoqishlaridan allaqanday madad topgandek bo'lgan, biroq bugungi ahvoliga na yuragi, na aql-idroki bardosh berdi. Bu dam yelkasiga urib, madad bo'lguvchi, hol so'rovchi ham topilmadi. O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga...

Haydar boboning yuragi kuydi. Burgutday odam qir ustida chumchuqday bo'lib qoldi. Esayotgan shabada go'yo uning quloqlari ostidan abadiyat kuyini chalib o'tayotgandek, avj pardalar xonishi uning bola tarbiyasida qayerda xato qilganini topolmasdan o'kinib, qalbini o'rayotgan nolishlariga uyg'unlashib ketayotgandek bo'ldi. Toki, o'g'lining qorasi o'chdi, keyin qiyalab pastga endi. Uyga kirsam, kampiri yig'lab o'tiribdi. Eshikka suyangan ko'yi bir zum muk tushib o'tirgan kampiriga qarab turdi, so'ng dedi:

- Kampir, sassiq deb burunni kesib tashlab bo'lmaydi. O'z pushtikamarimizdan bo'lgan farzand. Faqat qayerdadir xato qilibmizki, tarbiyasi buzuq chiqdi..."³.

O'g'il ko'chib chiqib ham o'zini o'zi eplay olmaydi. Ota-onasini ranjitgani uchun, biri ikki bo'lmaydi.

Haydar boboning kenja o'g'li ota-onasining orzusini amalga oshiradi. Toshkentda o'qib, magistraturani ham tamomlaydi. Ota-onasi topgan qizga uylanadi. Bu orada Haydar boboning kampiri yotib qoladi. Ana shu paytda chol-kampir bir-biriga qanchalik suyanib

³Safarov X. Oy botmagan kechalar. – Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2010. – B. 6.

qolganliklari yaqqol namoyon bo'ladi. Haydar bobo ayoliga o'zi qaraydi. Kecha-yu kunduz tepasida parvona bo'ladi.

Asarni o'qish jarayonida yozuvchi qanday g'oyalarni ilgari surganligini anglaymiz. Asarda ota-onani norizo qilish qanday oqibatlariga olib kelishi ko'rsatib berilgan. Ijodkor ushbu hikoya orqali ota-onani doimo qadrlash, ularning hurmatlarini joyiga qo'yish kerakligi kabi g'oyalarni ilgari suradi. Bundan tashqari ijodkorning ifodalagan eng muhim g'oyasi farzandga kichikligidan yaxshi tarbiya berish, chiroyli xulq-atvorli qilib ulg'aytirish zarurligidir.

Ijodkorning "Sovchilar" hikoyasida ham atrofimizda ro'y berayotgan voqea tasvirlangan. Avvalo, hikoya nomiga e'tibor beraylik. Yozuvchi nima uchun oddiygina qilib "Sovchilar" deya nom bergan ekan? Barchamizga ma'lumki sovchilik azal-azaldan hayotimizda mavjud bo'lgan va biz uchun muhim bo'lgan an'analardan biridir. Sovchilik orqali ikki inson hayoti bog'lanadi. Bu orqali ikki inson taqdiri hal bo'ladi. Hikoyani o'qir ekanmiz, ro'y berayotgan voqealar ko'pchiligimiz guvohi bo'lgan hodisalar ekanligiga amin bo'lamiz. Keling, hikoyaga bir nazar tashlaymiz.

Gulzor opa qizi Nigoraning xushnud kayfiyatda o'qishdan qaytganiga ajablanadi. Yuragi bir nimani sezgandek bo'ladi. Qizidan buning sababini so'raydi. Nigora oyisiga uyga sovchilar kelishini aytadi. Gulzor opa eri ishdan kelgandan so'ng bu haqda aytdi. Eri ham mulohazakor bo'lgani uchun "– O'zingdan qolar gap yo'q. Ishqilib gap bir insonning kelajagi haqida ketayotganini unutmasang bo'ldi..."⁴. deya javob beradi. Albatta, bir inson hayotini o'ylamasdan, tavakkaliga hal qilib bo'lmaydi. Axir, qizi u inson bilan bir umr yashaydi. Gulzor opa ertasiga sovchilarni yaxshi kutib oladi. Lekin sovchilarning qizlari qolib, ularning uy-joylariga, bo'lajak erkak qudaning qanday ish qilishiga, qizlariga qanday sep qilganlariga qiziqishlari, so'rab-surishtirishlari uning jahlini chiqaradi. "Bular nima istashayapti o'zi? – dedi o'ziga o'zi. – Qizim qolib, uy-joyimiz, boyligimiz, mashinamiz haqida gapirib, nimalar qo'shib berishimiz, kuyovni ishga joylashimiz, qisqasi, qizimizning baxtini bizning marhamatimizga taqab qo'yishayapti-ku? Bularning maqsadi boshqa-yov... Niyati yaxshi kelin topish emas, boy-badavlat xonadon bilan quda bo'lish va bundan foydalanishga o'xshaydi... Qizim ularga kelin emas, bir vosita bo'lib qolmayaptimi?"⁵. Haqiqatan ham sovchi uchun uchun qizning yaxshi yoki yomonligi, qo'lidan qanday ishlar kelishi muhim emasmi? Gulzor opa ham ana shunday fikrlarni xayolidan o'tkazib, sovchilarga rad javobini beradi. Chunki unga qizining baxti kerak.

Hikoyada bugungi kunda jamiyatimizda ro'y berayotgan voqea yoritilgan. Albatta, bugun yoshlarning hayotini emas, bir-birlarining boyluklarini, to'yni qanday dabdaba bilan o'tkaza olishlarini so'rab quda bo'layotganlar kammi? Ana shunday oxiri o'ylanmay qilinayotgan ish ortidan qanchadan qancha yosh oilalar barbod bo'layapti. Ularning taqdiri o'yinchoq qilinayapti. Asar tili sodda, ravon. Bir o'qishda o'quvchi asarda qanday g'oya ilgari surilganligini ilg'ab oladi. Ijodkor bu hikoyasi orqali quyidagi g'oyalarni kitobxonga anglatmoqchi bo'lgan:

⁴ Safarov X. Oy botmagan kechalar. – Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2010. – B.102.

⁵ Safarov X. Oy botmagan kechalar. – Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2010. – B. 105.

1. Quda bo'layotgan paytda o'sha insonning boyligiga, hashamatli uyiga, qiziga yoki o'g'liga qiladigan sarpolariga emas, balki o'sha qiz yoki yigitning xulqiga, yurish-turishiga e'tibor berish kerakligi;

2. Sovchilik orqali ikki inson hayoti hal qilinarkan, ota-onalar o'ylab, mulohaza qilib qaror chiqarish kerakligi;

3. Uylanmoqchi bo'lgan yigitlar qizning boyligiga qarab uylanmasliklari kerakligi, chunki, er yigitga bu ish yarashmaligini ilgari suradi yozuvchi.

Xoliyor Safarovning yana bir hikoyasi borki, uni o'qish jarayonida yig'lamaslikning, yurakdan qandaydir hislar o'tmasligining iloji yo'q.

"Xazonrezgi" deya nomlangan hikoyada bir bolakayning taqdiri haqida gap ketadi. Hikoyaning nomlanishiga diqqatimizni qarataylik. Ijodkor nima uchun shu nomni tanladi hikoyasiga? Birdan barchamizning ko'z oldimizga kuz, xazonlar to'kilishi tasviri namoyon bo'ladi. Mavzuning o'ziyoq bizga juda ko'p ma'no anglatadi. Hikoyada muallif tomonidan qo'llanilgan "To'kilayotgan barglarga qarang. Qaysi shoxdan uzilganini, qay nuqtaga tushishini hech kim bilmaydi. Ular shamol izmida"⁶. epigrafi ham mavzuning va bevosita hikoya g'oyasining ochilishiga xizmat qiladi. Hikoya ham aynan kuz tasviri bilan boshlanadi.

Hikoyada Zafarjon ismli bola haqida so'z boradi. U har kuni "Mehribonlik uyi"ning hovlisida o'tirib ota-onasining kelishlarini, uni olib ketishlarini intiqlik bilan kutadi. Ota-onasi o'tgan yili kuzda kelishlari kerak edi. Bolakayning har kuni shunday o'tadi. Ota-onasi boshqalarga o'xshab ajrashib ketmagan. Zafarjon ularning bir kun kelishlariga, uni o'zlarining uylariga olib ketishlariga, yana avvalgidek birga yashashlariga ishonadi. o'sha kunlar kelishini intizorlik bilan kutadi. Va o'sha kun ham keladi. Zafarjonning dadasi uni olib ketadi. Ammo uyda uni o'z onasi emas, notanish bir ayol kutib oladi. Dadasi Zafarjonning oyisini so'rab bergan savoliga qanday javob berishini bilmaydi. Zafarjon uyda sog'ingan va kutgan hayotni ko'rmadi. Oyisi yo'q, uyda bir ayol o'g'ilchasi bilan yuribdi. Ota esa oyisini so'rab xarxasha qilayotgan o'g'liga nima deb javob berishini bilmaydi. Chunki er-xotin chet elga ishlab kelish uchun ketadilar va safarlarining ikkinchi oyida xotini avtohalokat tufayli xotinidan ajralib qoladi. Keyin mana shu ayoli bilan tanishib qoladi. Yurtiga qaytib kelsada, o'g'lini uyiga olib kelishga ancha vaqtgacha jur'ati yetmaydi.

Zafarjon o'ziga munosabat qanday ekanligini bilib oladi. Bola uchun hojatxonadan boshqa hamma xonalar yopiq edi. Bir kun tongda ota erta uyg'onadi va Zafarjonning uyga yo'qligini sezib qoladi. Balki yana o'sha yerga ketgandur deya, "Mehribonlik uyi"ga boradi. "...Darvozasiga yetganda ko'zlariga achchiq yosh keldi. Endigina barg chiqargan ishkom ostidagi yo'lakda o'g'lining oq xalatlik juvon tizzasini quchib turganini ko'rdi va ingrab yubordi. Panjara temirini mahkam siqdi. Juvonning o'g'lini ko'tarib olganini, Zafarjon uning bo'ynidan quchib, yelkasiga bosh qo'yganicha ona-boladek ichkariga kirib ketishganini ko'rib turdi va endi juda kech bo'lganligini, o'g'lining o'zi shuni ixtiyor etganini ich-ichidan his etib, bemajol iziga qaytdi"⁷. Ha ota uchun bu juda katta yo'qotish edi. Hikoyaning kulminatsion nuqtasi ham aynan shu.

⁶ Safarov X. Oy botmagan kechalar. – Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2010. – B. 87.

⁷ Safarov X. Oy botmagan kechalar. – Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2010. – B. 93.

Endi asarda ilgari surilgan g'oyaga e'tibor beraylik. Hikoya bugungi zamonamizda, atrofimizda ro'y berayotgan voqealardan biridir. Bugun ko'p pul topaman deya o'zga yurtni orzu qilib, jajji bolakaylarning ko'nglini vayron qilib ketayotganlar kammi? Albatta, hammaning ham yaxshi yashagisi keladi. Lekin norasida go'daklarda nima ayb? "O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtningda gado bo'l" degan maqol bor xalqimizda.

Yozuvchi ushbu hikoyasi orqali bizning atrofga hushyor ko'zlar bilan boqishimizni, farzandlar taqdirini o'ylashimiz kerakligini uqtirmoqchi. o'ylamay qilingan ishning oxiri yaxshi bo'lmaydi. Inson har bir qadamini mulohaza qilib bosishi lozim.

Xulosa: Istiqloq davri adabiyotida mazmun va g'oya butunlay yangilandi.

Endi ijodkorlar uchun shunchaki shaklbozlik emas, insonning ichki dunyosini yoritish, jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni ajoyib g'oyalar orqali o'quvchiga yetkazib berish boshlandi. Endi inson adabiyot uchun emas, adabiyot inson uchun xizmat qila boshladi. Mustaqillik davri nasrida yosh ijodkorlar barakali ijod qilishayapti va o'z asarlarida yangi-yangi g'oyalarni ilgari surishayapti. Xususan, yosh ijodkor Xoliyor Safarov ijodi bunga yorqin misoldur.

Xoliyor Safarov asarlarida bugungi davrimizda sodir bo'layotgan voqealar yoritilgan. Bu esa yozuvchining ijod psixologiyasi va mahorati haqida bizga tasavvur uyg'otadi. Adib zamonaviy o'zbek adabiyotida hikoyachilik janriga o'zining juda katta hissasini qo'shib kelayapti va uning har tomonlama rivojlanishi, boyishi uchun harakat qilayapti. Yozuvchi asarlarining barchasi maishiy hayotdan olingan va sodda, ravon tilda yoritilgan bu esa o'quvchida o'qish jarayonida hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aliyev A. Istiqloq va adabiy meros. O'quv qo'llanma, – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Адабиёт назарияси, – 2 томлик, – 1978, 1979.
3. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Darslik, – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
4. Tulaboyeva R. Mustaqillik davri hikoyalarida milliy qadriyatlar ifodasi (Xoliyor Safarov hikoyalari misolida) maqolasi, - Ta'lim fidoyilari, 2023.
5. Safarov X. Oy botmagan kechalar, –Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2010.
6. Safarov X. Nomus va hayot, –Toshkent: G'afur G'ulom, 2019.